



BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHIDA MARIYA MONTESSORI METODIKASI

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-boshqich talabasi
Ikramova Shukronabonu Shukurilla qizi
Ilmiy raxbar: Muhabbat Yakubova

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15230747>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarni bolalar ijodiy rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek maqola davomida bolalarda erkinlikni taminlash ijodiy salohiyatni oshirishda muhim ro'l oynashi haqida amaliy tavsiyalar beriladi. Montessori metodikasi bolaning ijodiy qobiliyatlarini ochish, mustaqil fikirlaydigan va ijodiy yechimlarni topa oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash uchun samarali ta'lim tizimi ekanligi haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: metodika, rivojlanish, ijodiy, bola, qobiliyat, salohiyat mustaqil.

Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakillantirish uchun eng muxim davr xisoblanadi. Bolalar 18 oylikdan to 4 yoshgacha bo'lgan davrda juda ham qiziquvchan va malumotlar oqimini tez qabul qiladigan bo'lishadi. Bu davrda bolalar o'z tassavurlari, fantaziyalari, va o'ziga hos va takrorlanmas qarashlarini namoyon qilishga tayyor bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ijodiy rivojlanishni yanada samaraliroq qilish maqsadida Maria Montessori metodikalaridan foydalanish muhimdir. M. Montessori metodikasida bolalar o'z qiziqishlariga ko'ra materiallarni tanlash va faoliyatlar bilan shug'ullana olish orqali ijodiy fikirlash va tasavurlarni shakillantirishlari mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayoniga etibor qaratish natijasida emas balki, bolaning ijodiy jarayondan zavq olishiga va organishga yordam beradiga bu metod bolalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga intilayotgan ota-onalar uchun qimmatli yondashuv bo'lishi mumkin. Bugungi kunga kelib butun jaxon maktabgacha ta'lim tizimida Maria Montessori tomonidan ishlab chiqilgan metodika keng qo'llanilib kelmoqda. “Play and learn” ya'ni o'ynab o'rganing tamoiliga asoslangan bu dastur bolalarda ijodiy qobiliyatlarni hosil bolishida, ijtimoiy rivojlanishda, tarbiyachi ko'rsatgan mashqlarni o'zi mustaqil bajara olishi va eng muhimi dunyoqarashni kengaytirishga hizmat qiladi. Bu dastur qariyb 1 asrdan buyon o'z kuchini yo'qotmaganligining asosiy sababi zerikarli emas, va diqqat etiborni bajarilayotgan mashg'ulotga qaratishga unday oladigan prinsplarga asoslanib tuzilganligidir.

Ijodkorlik insoniyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda ijodiy fikir yuritadigan yangilik yaratishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan talab yuqori. Shunday ekan bolalarda ijodiy qobiliyatni shakillantirish pedogoglar va ota-onalarning ustuvor vazifasidir. Maria Montessori metodikasi esa bu sohada qo'l keladigan metodlardan biri hisoblanadi ya'ni Montessori metodikasida individuallikni qollab quvvatlash, ijodiy ko'nikmalarni shakillantirish orqali rivojlanishga katta xissa qo'shiladi. Bolalarining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yana bir omil bu erkinlikdir. Erkinlik bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch va masuliyat xisini shakillantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va pedogoglar bola rivijlanishida raxbar emas balki ko'makchi bo'lishlari zarur. “Bola o'zini o'zi o'qita oladi, uning yo'lini faqat siz va cheklovlaringiz to'sadi.” Montessori takitlaganidek haddan ortiq cheklovlar bolaning har qanday soxada rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsata oladigan kuch hisoblanadi.

M. Montessori ham o'yin orqali o'rgatish samarali usul ekanligini takitlagan. Bolalarda ijodiy rivojlanishga katta xissa qo'shadigan va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi eng asosiy metodlardan biri bu- o'yin metodikasi hisoblanadi. O'yin bu- bolalar hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. O'yin o'ynash orqali bolalarda nafaqat ijodiy balki tyaffakur qilish, va jismoniy ko'nikmalar ham shakillanib boradi. O'yin orqali shakillantirilgan ijodkorlik bolalarga juda ko'p imkoniyatlarni beradi. Masalan; o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy konikmalar, tasavur va fantaziyaning shakillanishi, muammolarni mustaqil hal qilish va boshqa bir qator muhim vazifalar.



Maria Montessori metodikasi bolalarning ijodiy rivojlanishida ulkan ahamiyatga egadir. Bu metodika bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun ajoyib imkoniyatlarni yaratadi. Erkin tanlov qila olish, oldindan tayorlangan muhit, va protsessga asoslanganlik bolalarning ijodiy salohiyatini yanada kengroq ifodalashga va ularning mustaqil fikirlaydigan va mustaqil yechimlarni topa oladigan shaxslar sifatida shakillanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. journal of contemporary world studies; Maria Montessorining zamonaviy pedagogikada tutgan o'rni. sayfullayev Husniddin.
2. Academic research in educational sciences; Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda M. Montessori metodikasidan foydalanish Nazokat Boboqulova
3. Eurasian journal of academic research; M. Montessori metodikasi asosida bolalarda mayda motorikani shakillantirish qoidalari va tamoillari nazokat Boboqulova.
4. Qodirova. N. R. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH // Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 109-111.